



*Zumrat XUDOYBERDIYEVA,*  
*Nizomiy nomidagi TDPU Yevropa tillari kafedrasida dotsenti v.b.*  
*E-mail: xudoyberdiyevazumrat@gmail.com*

*PhD, dotsent F.Ibragimova taqrizi asosida*

### FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR VA ULARNING TARJIMA MUAMMOLARI

Аннотация

Turg'un birikmalar hisoblanadigan frazeologizmlar har bir tilni bo'yoqdorligini oshirib, o'sha tilni sermazmun qilishga xizmat qiladi. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish har doim qiyinchiliklar bilan kechadi. Buning uchun mutarjimalardan ikki tilni mukammal bilish talab etiladi. Frazeologizmlar muhim birliklar hisoblanar ekan, ularning tarjima muammolari tarjimashunoslik va tilshunoslik aspektida doimo dolzarflik kasb etadi. Ushbu tadqiqotimizning maqsadi frazeologizmlarning xususiyatlari va ularning nemis tilidan o'zbek tiliga tarjima muammolari tahlil qilishdir. Buning uchun oldimizga quyidagicha vazifalarni qo'ydik: 1) Frazeologizmlarning umumiy xususiyatlari tavsiflash; 2) nemis tilidan o'zbek tiliga frazeologizmlarning tarjima muammolarini tahlil qilish. Ushbu tadqiqotimizda tavsifiy va qiyosiy tahlil metodlari orqali o'rganilayotgan mavzu tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, tarjima, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik, turg'un birlik, sinonim, ifoda, tarjima imkoniyatlari.

### ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ И ПРОБЛЕМЫ ИХ ПЕРЕВОДА

Аннотация

Фраzeологизмы, считающиеся устойчивыми соединениями, увеличивают колорит любого языка и служат его обогащению. Перевод таких сочетаний с одного языка на другой всегда затруднен. Для этого от переводчиков требуется отличное знание двух языков. Поскольку фраzeологизмы считаются важными единицами, проблемы их перевода всегда актуальны в аспекте переводоведения и лингвистики. Целью данного исследования является анализ особенностей фраzeологии и проблем их перевода с немецкого языка на узбекский язык. Для этого мы поставили перед собой следующие задачи: 1) описать общие черты фраzeологизмов; 2) анализ проблем перевода фраzeологии с немецкого на узбекский язык. В данном исследовании изучаемая тема анализируется с помощью методов описательного и сравнительного анализа.

**Ключевые слова:** Фраzeологизм, перевод, литературоведение, переводоведение, устойчивая единица, синоним, выражение, возможности перевода.

### PHRASEOLOGICAL UNITS AND PROBLEMS OF THEIR TRANSLATION

Annotation

Phraseologisms, considered stable compounds, increase the color of any language and serve to enrich it. Translation of such combinations from one language to another is always difficult. This requires translators to have excellent knowledge of two languages. Since phraseologisms are considered important units, the problems of their translation are always relevant in the aspect of translation studies and linguistics. The purpose of this study is to analyze the features of phraseology and the problems of their translation from German into Uzbek. To do this, we set ourselves the following tasks: 1) to describe the common features of phraseologisms; 2) analysis of the problems of translating phraseology from German into Uzbek. In this study, the topic under study is analyzed using descriptive and comparative analysis methods.

**Key words:** Phraseological unit, translation, literary studies, translation studies, stable unit, synonym, expression, translation possibilities.

**Kirish.** Tilshunoslikda lug'at zahirasining boyib borishi uchun turli xil imkoniyatlar mavjud. Tilning lug'at boyligi asosan so'zlardan iborat. Leksik birliklar deganda, nafaqat alohida so'zlarni tushunamiz, balki turg'un so'z birikmalarini (faza, turg'un ibora, frazeologizmlar) ham tushunamiz. Frazeologiya (yun. phrasis — ifoda, ibora va ...logiya) — 1) tilshunoslikning tilning frazeologik tarkibini uning hozirgi holatida va tarixiy taraqqiyotida tekshiruvchi bo'limi; 2) muayyan tildagi frazeologizmlar majmui. Frazeologiyani kengroq ta'riflash uchun uning nazariy va amaliy jihatlariga e'tibor berish kerak.

Frazeologiya – bu til hodisalarining frazeologik jihatdan ifodalanishi uchun bugungi kunda turli xil baxs-munozaralarga sabab bo'lmoqda[8].

Frazeologik birliklarni tarjima qilishning o'ta murakkab amaliy jarayon ekanligi asosan mazkur birliklar tabiatiga - ularning leksik, semantik va qurilish jihatlaridan murakkabligiga vobastadir. Boz ustiga, talay frazeologizmlar milliy xususiyatga egadir, bu xol xam tarjimonlar oldiga qator amaliy kiyinchiliklarni kundalang qilib qo'yadi. Asl nusxa va tarjima tillari frazeologizmlarining tabiatini qiyosiy o'rgangan holda, ular orasidagi mazmuniy-uslubiy muvofiqlik holatlarini aniqlash va tarjima jarayonida ularning birini ikkinchisi vositasida talqin etish yo'l va imkoniyatlarini belgilash to'laqonli tarjima yaratish uchun zamin hozirlaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A. A. Potebnya, I. I. Sreznevskiy, A. A. Shaxmatov asarlarida asos solingan bo'lsa, barqaror (turg'un) so'z birikmalarini alohida tilshunoslik bo'limi — frazeologiyada o'rganish masalasi 20-40-yillardagi o'quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S. Abakumov, L. A. Bulaxovskiy asarlarida ko'tarib chiqilgan. G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida frazeologiya tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida ajratilmaydi.

O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar o'tgan asrning 50-yillaridan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan (Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov va boshqalar), frazeologiya bo'yicha bir necha lug'atlar tuzilgan (Sh. Rahmatullayev, M. Sodiqova, Sh.Imyaminova), yozuvchilardan Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Hamid Olimjon, Oydin, Said Ahmad asarlarining frazeologik tarkibi tadqiq etilgan. 70-80-yillarda SamDU qoshida frazeologik tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi va maxsus to'plamlar chiqaruvchi markaz faoliyat ko'rsatgan.

M. Xusainov frazeologizmlar tasnifiga to'rtinchi guruhi — ideomalarni kiritdi. O'zbek frazeologiyasining ilmiy asosda chuqur o'rganilishi va takomillashuvida Sh. Raxmatullaevning

hizmati beqiyos bo'ldi. U o'zining qator tadqiqotlari bilan o'zbek frazeologiyasiga asos soldi. Olim o'zbek frazeologizmlar doirasini ancha toraytirdi va faqat ko'chma ma'noga asoslangan barqoror birliklarinigina frazeologizmlar tarkibiga kiritdi.

O'zbek tilshunos olimlari ham frazeologizmlarni keng talqin qilishda V.V.Vinogradovning qarashlaridan ancha chetga chiqqan boshlandi. Natijada frazeologizmlar tarkibiga faqat ko'chma ma'noli barqoror birliklarni gina emas, balki tilda oldindan birlikma holda mavjud bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiritiladigan barcha barqoror birliklarni kiritila boshlandi. Natijada maqol, matal, hikmatli so'zlar ham frazeologizmlar sifatida qarala boshlandi. Shu tariqa frazeologizmlarni tor hamda keng ma'noda tushunish yuzaga keldi. Shu va shunga o'xshash barcha muammoli masalalar bo'yicha yagona bir fikr mavjud emas. Frazeologiya sohasi ham turli xil qarashlarga ega.

Tilshunosning bu sohasida avvaldan ushbu yuqoridagi "tor" va "keng" tushunchalari mavjud bo'lib, "tor" tushunchasi ma'lum darajada izohli lug'atlarga leksik birlik bilan barovar kirgan. Shubhasiz, eng avvalo, lug'atga frazeologizmlar, so'z ekvivalentlari kiritilgan. Gap modeliga teng turg'un iboralar esa kiritilmagan.

O'zbek frazeologiyasining yanada rivojlanishida va muvaffaqiyatlarga erishuvda B.Yo'ldoshev, A. Mamatov va M.Vafoevalarning xizmatlari ham taxsinga loyiq bo'ldi. Bu tilshunos olimlar o'zbek frazeologiyasini o'ziga xos qirralarini turli xil yondashuvlar asosida yoritib berganlar.

Tahlil va natijalar: Frazeologik birliklarni tarjima qilishda ular asosida mujassamlashgan obrazning barhayot yoki siyqaligini oydinlashtirishning ham tarjima tilida asl nusxadagi lisoniy birliklarga mazmun va uslub jihatlaridan mos til vositalarini tanlashda ahamiyati katta.

Obrazlilik ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning muqobil lisoniy vositalar yordamida o'girilishi asl nusxa mazmuniy-uslubiy xususiyatining tarjimada qayta yaratilishini ta'minlaydi. Ammo ba'zan obrazlilik ma'lum darajada xiralashib qolgan frazeologizmlarning o'zidek xususiyatiga ega lisoniy vositalar orqali emas, balki obrazlilik to'la barxayot barqoror birlikmalar yordamida yoki, aksincha, obrazlilik ochiq-oydin ko'zga tashlanib turadigan frazeologizmlarning ushbu xususiyati so'nibroq qolgan lisoniy vositalar orqali adekvat talqin etilishining guvohi bo'lamizki, bunday hollarda ikki til birliklari o'rtasidagi pragmatik muvofiqlik moslashtiruvchi vositalar qo'shish yo'li bilan vujudga keltiriladi.

So'z birlikmalarini chuqur tahlil qilishdan avval, so'z birikmasi tushunchasiga alohida to'xtalib o'tsak. So'zlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birlikma tarzida mavjud bo'ladi. Erkin sintaktik birlikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik birlashuvidir. Bunday sintaktik so'z birlikmalari semantik nuqtai nazardan ham analiz qilinishi mumkin. Chunki bunday so'z birikmasining har bir komponenti o'zining asl ma'nosida va ko'chma ma'noda bo'lishi mumkin. Barcha so'z birlikmalarining umumiy ma'nosi ularning komponentlari ma'nolarining birlashuvidan yuzaga keladi[9].

Masalan, eine kluge Studentin, ein faule Studentin, ein gehorsame Studentin yoki in die Schule gehen, in den Zoo gehen, ins Theater gehen va boshqalar. Bunday so'z birlikmalari so'zlashuv jarayonida yaratiladi. Erkin so'z birikmasi qo'llanish

jarayonida o'z ma'nosini yo'qotishi va ko'chma ma'no hisobiga turg'un birikmaga aylanishi mumkin.

Masalan, Jemandem das Gesicht, die Hande, den Kopf, waschen birlikmalari o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasi sifatida uchraydi va kimnidir yuzini, qo'llarini, boshini yuvmoq deb tarjima qilinadi. Lekin Jemandem den Kopfwaschen birlikmasi esa, ko'chma ma'noda ibora sifatida ishlatiladi va kimnidir koyimoq, tanbeh bermoq tarzida tarjima qilinadi. Yana bir misol: Etwas (jemanden) in der Hand haben yoki halten birlikmasi o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasidir [8].

Masalan, ein Buch in der Hand halten. Ushbu jumla qo'lida kitob ushlab turmoq deb tarjima qilinadi. Ko'chma ma'noda esa u turg'un so'z birikmasi hisoblanadi va kuchga ega bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Ushbu turg'un birikmani misol tarkibida ko'rib chiqsak. Er hielt ihm in der Hand, er konnte ihn vernichten! (H. Mann). Bu gapni Uning taqdiri hozir uning qo'lida, hoxlasa yo'q qilib tashlashi mumkin, xoxlasa tirik qoldirishi mumkin, xoxlasa unga yordam qo'lini cho'zishi mumkin deb tarjima qilinadi. Quyidagi so'z birikmasiga Ein Faden ein Band um den Finger wickeln ham alohida tarzda qaralganda, o'zining asl ma'nosida, ya'ni ipni yoki bantikni barmog'iga o'rarmoq tarzida tarjima qilinadi. Lekin ushbu birlikmalar jumalari tarkibida o'z ma'nosini yo'qotib, ko'chma ma'no kasb etadi. Va turg'un ibora sifatida qo'llanadi.

Masalan, jemanden um den Finger wickeln birlikmasi ko'chma ma'noda kelgan bo'lib, kimnidir boshqarmoq, ba'zan esa, aldamoq ma'nosini anglatadi. „Erkin so'z birikmasining rivojlanish jarayoni turg'unlikda tadrijiy usulda amalga oshadi. Ba'zan uning turg'un birlikma yoki erkin so'z birikmasi ekanligini aniq aytish qiyin. Turg'un so'z birlikmalari tilda nutq jarayonida mustaqil ravishda so'z tarkibining leksik elementi sifatida mavjud bo'ladi va qo'llanilishida alohida so'zlar ma'nosiga yaqin turadi. Ular nutq jarayonida yaratilmaydi, balki tasvirlanadi“. Masalan, Das Schwarze Meer, in Bewegung bringen, dicke Luft va boshqalar. So'z birlikmalari ham so'zlar kabi lug'at boyligiga kiritilgan va tilning boyishiga xizmat qiladi.

**Xulosa va takliflar.** Hozirda butun dunyoda fan- texnika rivojlanib borar ekan, tillar taraqqiyoti ham bundan mustasno emas. Hatto ayrim tillar kompyuter tili ostida ixchamlashtirilmoqda. Bu jarayonda til xam, lug'at tarkibi ham, uning qismiga kiruvchi juft so'zlar ham boyib, kengayib bormoqda. Tilning lug'at tarkibining boyish manbalaridan biri bo'lmish frazeologizmlar bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilinmaydi, balki o'sha tildagi muqobili topiladi. Frazeologizmlar tarjimasida ularning xususiyatlariga e'tibor berish kerak:

Komponentlarning ikki yoki undan ko'p so'zdan iborat bo'lishi. Albatta bu nomidan ham ma'lumki, frazeologizmlarda komponentlar soni 2 ta yoki ba'zi hollarda 3 ta bo'ladi. Frazeologizmlarda ham xuddi shu holatni ko'rishimiz mumkin.

Turg'unlik. Frazeologizmlarning komponentlarini bir-biridan ayirib bo'lmaydi. Yoki ularning o'rnini almashtirib yoki komponentlardan birining o'rniga boshqa so'z qo'llash imkoniyati mavjud emas. Idomalilik. Ba'zi frazeologizmlar ko'chma ma'noda ham ishlatiladi. Masalan, alte Hase so'zini aqlli odam deb tushunishimiz mumkin.

Yuqoridagi xususiyatlarni inobatga olgan holda, frazeologizmlar tarjimasida ularning muqobil variantlari topiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdullayev A. (1976) Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati/O'zbek tili va adabiyoti 5-son.
2. Abdurahmonov S. (2015) Nemis tilida frazeologizmlarning ifoda jihati xususida ba'zi mulohazalar. Respublika ilmiy amaliy anjuman materiallari. Samarqand.
3. Allayorova R.R. (2008) Tarjima nazariyasi va amaliyoti. Urganch.
4. Dolimov Z. (2009) Tarjima san'ati va muammolari. Toshkent: O'qituvchi.
5. Федоров, А.В. (1968) Основы общей теории перевода. - М.: Высшая школа.
6. Fleischer W. (1982) Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache. Leipzig.
7. Хожиев А. (1963) Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. Тошкент. Фанлар Академияси.
8. Имянинова Ш. С. (2011) Немис тили фразеологияси. - Т.: Мумтоз сўз.
9. Iskos A., Lenkova A. (1975) Lesestoffe zur deutschen Lexikologie. Leningrad, Prosvishchina.